

XITOYNING “YANGI XAVFSIZLIK KONSEPSIYASI” MINTAQAVIY HAMKORLIK VA XAVFSIZLIK FALSAFASI (O‘ZBEKISTON MISOLIDA)”



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-157-160>

*Abdazimov Javlon,
TDSHU katta o‘qituvchisi
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori PhD,*

Bugun jahonda yuz berayotgan global o‘zgarishlar fonida davlatlar tinchlik, taraqqiyot, hamkorlik va umumiy muvaffaqiyatga erishish bayrog‘ini baland tutish zarur. Davlatning ichki va xalqaro faoliyati borasida rejalarini muvofiqlashtirish, ikki muhim vazifa – tinchlik va taraqqiyotni birlashtirish darkor. Bosh rishta - tinchlik va taraqqiyotni qattiq ushlab, milliy tiklanish sari borish, davlat suvereniteti, xavfsizlik va taraqqiyot manfaatlarini og‘ishmasdan himoya qilish lozim. Bizning mamlakatimiz tinch va osoyishta rivojlanish uchun yanada qulay xalqaro vaziyat yaratish, oldimizga qo‘yilgan maqsadlarni amalga oshirish hamda muhim strategik qulayliklar davrini saqlash va davom ettirish sari ildam bormoqdamiz.

Hozirgi dunyo – bu o‘zgarishlar dunyosidir, unda tinimsiz yangi imkoniyatlar va yangi tahdidlar paydo bo‘lmoqda. Bu – xalqaro munosabatlar va xalqaro tartibot tizimida ulkan qayta shakllanish boshidan kechirayotgan dunyodir. Bu – xalqaro kuchlar nisbatan tinchlik va taraqqiyot foydasiga chuqur o‘zgarishlar yuz berayotgan dunyodir. Ayni vaqtda biz turfa xavf va tahdidlarga alohida e‘tibor qaratishimiz, xatarlarni qulay imkoniyatlarga aylantirishni, tang vaziyatlardan chiqib olishni o‘rganishimiz lozim.

Ma‘lumki, o‘tgan asrning oxirgi 10 yilligining tugash davrida xalqaro munosabatlar tizimida tub o‘zgarishlarga olib keldi. Markaziy Osiyodagi yangi suveren davlatlar murakkab harbiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bilan yuzlashdi, bu esa asosan milliy va mintaqaviy darajada xavfsizlik muammolarining oshishi bilan bog‘liq edi.

Mintaqaning asosiy murakkab siyosiy muvozanatini mintaqaviy va xalqaro mojarolar maydonlarining kengayishi, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va fundamentalizm, separatizm, narkotik kontrabanda va transmilliy tashkilotlangan jinoyatchilikning ko‘payishi bilan yanada murakkablashtirdi. Bularning barchasi xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlash yo‘llarini izlash masalasini birinchi o‘ringa chiqardi.

O‘zbekiston va Xitoyning xavfsizlik sohasidagi qadamlari, xususan, “uch yomonlik” – separatizm, terrorizm va ekstremizmga qarshi birgalikdagi kurash juda sezgir va muhim qadam bo‘ldi. Ikki tomonlama xalqaro kelishuvlardan tashqari, har ikkala davlat o‘zaro ko‘p tomonlama shartnomalarni ham imzolashdi. Yangi mustaqil davlatlarining mustaqillik jarayoni, nafaqat bozor munosabatlari ko‘rsatkichlarining nisbatan zaifligi va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning unchalik qulay emasligi bilan murakkablashgan, balki konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, mustaqillikni mustahkamlash va davlat qurilishi zaruriyati bilan bog‘liq edi. Shuningdek,

mintaqadagi yosh davlatlar yangi siyosiy haqiqatga muvofiq qo‘shni davlatlar bilan chegaralarda o‘zaro ishonch va xavfsizlikni mustahkamlash vazifasiga duch keldi.

O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar mustaqillikning dastlabki yillaridan to bugungi qadar tobora chuqurlashib, yaqin strategik sheriklik darajasiga qadar yetdi. Bu munosabatlar nafaqat iqtisodiy va savdo yo‘nalishlarni, balki xavfsizlik va strategik hamkorlikni ham o‘z ichiga oladi. Albatta bu jarayonlar ikki davlatning milliy xavfsizlik konsepsiyalari bilan uzviy bog‘lanadi va bugungi global geosiyosiy sharoitda o‘zaro ta’sirchan modelni hosil qilmoqda.

Bu model - O‘zbekistonning mustaqillikdan boshlab shakllangan xavfsizlik konsepsiyalari bilan Xitoyning xavfsizlik va global boshqaruv konsepsiyalari o‘rtasidagi uyg‘unlik va hamkorlikni o‘rganadi.

Sovuq urush tugaganidan so‘ng Xitoy Xalq Respublikasi xalqaro xavfsizlik va global boshqaruv masalalarida bosqichma-bosqich evolyutsion yondashuvni shakllantirdi. 1990-yillarda mintaqaviy xavfsizlikdan boshlangan bu jarayon XXI asrning 2025-yillarga kelib global xavfsizlik, rivojlanish, sivilizatsiya va boshqaruvni qamrab olgan yaxlit konseptual tizimga aylandi.

Xitoy tomonidan 1997-yildan 2025-yilgacha ilgari surilgan xavfsizlik, rivojlanish va global boshqaruv konsepsiyalarining shakllanishi va evolyutsiyasi tahlil qilinsa “yangi xavfsizlik konsepsiyasi”dan boshlab global xavfsizlik tashabbusi, global rivojlanish tashabbusi, global sivilizatsiya tashabbusi hamda global boshqaruv konsepsiyasigacha bo‘lgan jarayon izchil ravishda takomillashtirib chiqilganligini ko‘rish mumkin. Xitoyning tashqi siyosiy tafakkuri mintaqaviy xavfsizlikdan global boshqaruv modeliga qanday o‘tgani, ushbu konsepsiyalarning asosiy tamoyillari, maqsadlari va mexanizmlarini ko‘rib chiqish muhim sanaladi.

Bugun jahonda xalqaro xavfsizlik tizimi tubdan o‘zgardi, ikki qutbli qarama-qarshilik o‘rnini ko‘p qirrali va murakkab xavfsizlik muammolari egalladi. Shu sharoitda Xitoy Xalq Respublikasi o‘z tashqi siyosatini yangilashga kirishib, xavfsizlikka nisbatan an’anaviy harbiy yondashuvdan voz kechgan holda, bosqichma-bosqich kooperativ, kompleks va global xarakterdagi konsepsiyalarni ilgari surishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi.

Xitoyning zamonaviy xavfsizlik yuzasidan ishlab chiqilgan eng muhim nuqta 1997-yilda ASEAN Regional Forumida ilgari surilgan “*yangi xavfsizlik konsepsiyasi*” bilan boshlandi. Ushbu konsepsiya sovuq urush davriga xos bo‘lgan harbiy bloklar va qarama-qarshilikka asoslangan xavfsizlik modelini tanqid qilib mamlakatlarni teng yani bloklar va harbiy ittifoqlarga asoslangan qarama-qarshilikni rad etadi.

“Yangi xavfsizlik konsepsiyasi”ning asosiy tamoyillarini nimalarda kuzatamiz, bular: o‘zaro ishonch, o‘zaro manfaat, tenglik, hamkorlik hisoblanib, bu konsepsiya Xitoy tashqi siyosatida realistik-harbiy xavfsizlikdan kooperativ xavfsizlikka o‘tishni anglatadi.

Mazkur yondashuv Xitoy tashqi siyosatida xavfsizlikni harbiy kuchdan ko‘ra diplomatiya va hamkorlik orqali ta‘minlash g‘oyasini ilgari surdi. Ilmiy jihatdan bu konsepsiya Xitoyning realizmdan konstruktiv xavfsizlik paradigmasiga o‘tishining boshlanishi sifatida baholanadi[1]. Shu bilan birgalikda Xitoyning harbiy-blok

yondashuvidan voz kechib, xavfsizlikni siyosiy-diplomatik yo‘l bilan ta‘minlashga o‘tganini ko‘rsatadi.

Keyingi davrda esa mintaqaviy va hamohang kengayish bosqichi boshlandi desak bo‘ladi, bu davrda asosan yangicha xavfsizlik metodlariga asoslangan model ishlab chiqildi. “Harmoniyali dunyo” konsepsiyasi bevosita Hu Jintaoning rahbarlik davrida ilgari surilgan konsepsiya hisoblanib, asosiy mazmuni:

1. tinchlik yo‘li bilan rivojlanish;
2. kuch ishlatishga qarshi turish;
3. global global hamkorlikni kengaytirish va adolatni ta‘minlash

kabi muhim yo‘nalishlarni qamrab olgan. U avvalgi “Yangi xavfsizlik konsepsiyasi”ni mintaqaviy doiradan global falsafaga ko‘tarilishida muhim turtki bo‘ldi[2].

Globalizatsiya sharoitida milliy davlatlarning tezkor o‘zaro bog‘liqligi va kuchayishi, shuningdek, mintaqadagi zamonaviy tahdid va chaqiriqlarning keng ko‘lami, barcha davlatlarini xavfsizlik va barqarorlik masalalarini ikki va ko‘p tomonlama formatlarda javobgarlik bilan ko‘rib chiqishga majbur qildi.

Xitoyning tashqi siyosat borasidagi yo‘li butun dunyoda tinchlikni saqlash va birgalikda taraqqiy etishda hamkorlik qilishdan iboratdir. Xitoy tashqi dunyoga ochiq bo‘lishi borasidagi asosiy yo‘liga ildam qadam tashlab bormoqda, mamlakat ochiq eshiklar sharoitida sotsialistik jamiyat qurmoqda hamda hamkorlikni ta‘minlash sohasida “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi muhim vazifalarni bajarib bermoqda.

Bu konsepsiya asosan iqtisodiy tashabbus bo‘lsa-da, rivojlanish orqali xavfsizlikni mustahkamlash g‘oyasini ilgari surishga qaratiladi. Uning asosiy mexanizmlari: infratuzilmalarni rivojlantirish, savdo va logistikani mustahkamlash, energetika tarmoqlarini kengaytirishga qaratilgan muhim loyihadir[3].

Keyingi muhim model esa Si Szinpin “Umumiy milliy xavfsizlik tushunchasi” konsepsiyasi unda xavfsizlikni harbiy, siyosiy, iqtisodiy, axborot, ekologik tizim sifatida ko‘riladi va kompleks xavfsizlik modeli sifatida olinadi[4].

Yangi davrda Xitoyning milliy mudofaasi - 2019-yilda e‘lon qilingan ushbu hujjat Xitoyning mudofaa siyosatini rasmiy va tizimli tarzda bayon qiladi. Unda Xitoyning mudofaviy xarakterga ega strategiyasi, qurolli kuchlar islohoti va global xavfsizlikdagi roli belgilandi. Asosiy tamoyillari sifatida: mudofaviy boshqaruv, global xavfsizlikni mustahkamlash sifatida belgilanib, maqsadi milliy mudofaa kuchlari bilan global barqarorlikni ta‘minlashga qaratiladi. Amalga oshirish mexanizmlari sifatida mudofaa sohasida islohotlari, xalqaro hamkorlik tizimini mustahkamlash tushuniladi[5]. Uning asosiy yutug‘i avvalgi nazariy konsepsiyalar institutsionallashtirishini ta‘minlab hujjatli shaklga keltirildi.

Albatta bundan oldingi nomlari keltirilgan modellar nafaqat ichki jarayonlarda balki, tashqi jarayonlarda ham xavfsizlikni ta‘minlashga katta ko‘mak bera oldi.

Keyinga davrni endi Global tashabbuslar bosqichi (2021–2025) deb atash mumkin. Sababi bu davrda Xitoy o‘zining boshqa mamlakatlarning huquq va manfaatlariga dahl qilmaslik, hech kimning taraqqiyotiga hasad qilmaslik vas hu bilan

birgalikda o‘zining qonuniy huquq va manfaatlaridan ham hech qachon voz kechmaslik haqida chaqiriqlarini yangrashi bilan boshlandi.

Bularni tahlil qilsak, (1) Global rivojlanish tashabbusi “GDI, 2021” - ushbu tashabbus xavfsizlik va rivojlanish o‘zaro bog‘liq degan g‘oyaga asoslanadi. Iqtisodiy tenglik va barqaror rivojlanish global barqarorlikning muhim sharti sifatida ko‘riladi. (2) Global xavfsizlik tashabbusi “GSI, 2022” - 2022-yilda Boao Osiyo forumida Si Szinpin tomonidan e‘lon qilingan GSI Xitoyning xavfsizlik bo‘yicha eng muhim global konsepsiyasidir. U “bo‘linmas xavfsizlik” tamoyiliga asoslanadi va quyidagi yo‘nalishlarni ilgari suradi:

- davlatlar suverenitetini hurmat qilish;
- bloklarga qarshi turish;
- mojarolarni siyosiy yo‘l bilan hal etish;
- BMT markaziy rolini mustahkamlash.

2023-yilda e‘lon qilingan GSI “Concept Paper” ushbu tashabbusning institutsional asoslarini belgilab berdi.

(3) Global sivilizatsiya tashabbusi “GCI, 2023” - mazkur tashabbus xavfsizlik va rivojlanish masalalariga madaniy-gumanitar o‘lchamni qo‘shadi. Madaniyatlar xilma-xilligi va sivilizatsiyalararo muloqot global barqarorlik omili sifatida ko‘rsatildi. (4) Global boshqaruv konsepsiyasi “GGI,2025” - eng yangi bosqich bo‘lib, u Xitoyning barcha avvalgi tashabbuslarini yagona strategik tizimga birlashtiradi. Konsepsiya adolatli, ko‘p qutbli va BMTga asoslangan global boshqaruv modelini ilgari surishni taqdim etdi.

Ko‘rib o‘tganimizdek Xitoy o‘zining do‘stona hamkorlik munosabatlarini o‘rnatgan holda, mustaqil, erkin va tinch diplomatik siyosatini olib bormoqda.

Shu o‘rinda O‘zbekiston ham davlatlararo va ichki siyosatida xavfsizlik modelini yaratib, o‘zining xavfsizlik konsepsiyalarini ishlab chiqdi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon mamlakat xavfsizlik, tashqi siyosat va davlat boshqaruviga oid milliy konsepsiyalarini bosqichma-bosqich ishlab chiqdi, mamlakatimiz o‘zining Xitoydagi kabi rasmiy konsepsiyalar tizimi shakllangan bo‘lib, u mustaqillik, suverenitet, tinchlik, barqarorlik va mintaqaviy hamkorlik kabi asosiy tamoyillarni o‘zida mujassam etadi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. New security concept.
https://en.wikipedia.org/wiki/New_security_concept?utm_source
2. Hu Jintao Calls for Building Harmonious World.
https://www.peoplechina.com.cn/17thCPC/txt/2007-10/15/content_80549.htm
3. Chaina belt and road. <https://www.beltandroadforum.org>
4. https://en.wikipedia.org/wiki/Holistic_national_security
5. Белая книга о национальной безопасности Китая в новую эпоху | Национальная безопасность Китая в новую эпоху.
http://www.mod.gov.cn/gfbw/fgwx/bps/16385614.html?utm_source